

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON:
TIL VA MADANIYAT

Adabiyotshunoslik

2025 Vol. 1 (2)

www.literature.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

ADABIYOTSHUNOSLIK

2025 Vol. 1 (2)

www.literature.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rinbosarlari: Nurboy Jabborov
Bahodir Karimov

Mas'ul kotib: Sohiba Madirimova

Tahrir kengashi

Nusratulla Jumaxo'ja, Iqboloy Adizova, Abdulla Ulug'ov, Dilnavoz Yusupova, Islom Yoqubov, Qo'ldosh Pardayev, Umida Rasulova, Akrom Dehqonov, Olim To'laboyev, Tozagul Matyoqubova, Shermuhammad Amonov, Shahlo Hojiyeva, Orzigul Hamroyeva, Ilyos Ismoilov, Sohiba Umarova, Gulbahor Ashurova, Ilhom Sayitqulov, Gulzoda Soatova, Dildora Rahmonova, Zilola Shukurova, Furqat To'xtamurodov, Sarvinoz Rasulova.

Jurnal haqida ma'lumot

“Adabiyotshunoslik” – “O'zbekiston: til va madaniyat” jurnalining adabiyotshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda to'rt marta nashr etiladi.

Jurnalning **“Adabiyotshunoslik”** seriyasida o'zbek va jahon adabiyoti tarixi, xalq og'zaki ijodi, adabiyot nazariyasi, o'zbek mumtoz adabiyotining qo'lyozma manbalari va matnshunoslik muammolari, jadidchilik va jadid adabiyoti, zamonaviy adabiy jarayon, adabiy tanqid hamda qiyosiy adabiyotshunoslik yo'nalishidagi eng yangi tadqiqotlar e'lon qilinadi. O'zbek va jahon adabiyotshunosligi erishgan so'nggi yutuqlari aks etgan ilmiy maqolalarni nashr etishga alohida diqqat qaratiladi. Maqolalarning ilmiy saviyasi va tahliliy quvvati yuqori bo'lishiga e'tibor beriladi.

“Adabiyotshunoslik” seriyasida O'zbekiston va xorijiy davlatlarning e'tirof etilgan atoqli olimlari, oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar hamda magistrantlarning ilmiy maqolalari nashr etiladi.

“Adabiyotshunoslik” seriyasi 2022-yil yanvar oyidan chiqq boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: adabiyotshunoslik2022@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

www.literature.tsuull.uz

MUNDARIJA

MUMTOZ ADABIYOT TARIXI

Dilnavoz Yusupova Samarqand shahri ikki buyuk siymo talqinida	5
Sohiba Umarova Sa'diy Xorazmiy devoni nusxalari va janrlar tarkibi	16
Olimjon Abdullayev Balog'at ilmi rivojida arab shariatining o'rni.....	27
Muattar Axmedova O'rta Osiyoda agiografik asarlarning o'rganilishi	47
Asadullojon Aminjonov Sharq adabiy merosida tafsir ilmining shakllanishi, metodologiyasi va yurtimizda yetishib chiqqan soha yetakchilari	58
Xafiza Abduraimova Alisher Navoiy g'azaliyotida Xizr va Masih obrazlari talqini	75
Sarvinoz Qurbonova Nodim Namangoniyning poetik mahorati	88
Dilnavoz Sattorova Sa'diy lirikasi kiritilgan to'plam-bayozlar tavsifi	102
Firuza Ibragimova "Devoni Faqiriy Xorazmiy" qo'lyozma devonining dastxat nusxasi ...	117
Dilafroz Bozorboyeva Pahlavonquli Ravnaq hayoti va lirik merosi	130
Mahliyo Rasulova "Hayrat ul-abror" dostoni hikoyatlaridagi tasavvufiy mazmunning badiiy talqini	141
Rayhon Norqulova "Yo'qotganlarim va topganlarim" asarida ustozlar yodi	151
Charos Kuvondikova Furqat ijodining o'rganilishi haqida ba'zi mulohazalar	160

ZAMONAVIY ADABIYOT MUAMMOLARI

Abdulla Ulug'ov Adabiy qahramon – insonning adabiyotdagi obrazi	168
---	-----

Sitorabonu Ataullayeva

Abdulla Qahhor va Ketrin Mensfild hikoyalarida ruhiyat va tabiat tasviri202

Dilnoza Sayfullayeva

“Sariq devning o‘limi” romanidagi obrazlarning biografik asosi214

Umida Abdullayeva

Expressive Description of London and Market in Dickens’ Novel Oliver Twist224

Sharq adabiy merosida tafsir ilmining shakllanishi, metodologiyasi va yurtimizda yetishib chiqqan soha yetakchilari

Asadullojon Aminjonov¹

Abstract

Mazkur maqolada Movarounnahr tafsir maktabiga mansub yozma manbalar manbashunoslik va matnshunoslik mezonlari asosida kompleks tarzda tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor tafsir matnlarining til strukturasi, uslubiy xususiyatlariga, kontekstual yaxlitligiga hamda metodologik yondashuvlariga qaratilgan. Tadqiqot doirasida "tafsir" atamasining lug'aviy va istilohiy mazmuni aniqlashtirilib, ularning matn shakllanishidagi semantik yuklamasi baholanadi. Zamaxshariy, Abul Lays Samarqandiy va Abul Barakat Nasafiy kabi mufassirlarning matnlari tahlil qilinib, ilmiy uslub struktura va an'anaviy bilimlarni izchil ifodalashdagi metodologik yondashuvlari tahlil qilingan. Maqolada keltirilgan ilmiy natijalar ushbu matnlarni zamonaviy filologiya, manbashunoslik va intellektual tarix doirasida o'rganish dolzarbligini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: *Tafsir (lug'aviy-istilohiy), matnshunoslik, manbashunoslik, yozma meros, Movarounnahr mufassirlari, "Madorik at-Tanzil va Haqiq at-Ta'vil", tafsir metodologiyasi, til struktura, kontekstual yondashuv, ilmiy uslub.*

Kirish

Sharq adabiy va ilmiy tafakkuri tarixi o'z ichiga ko'p qatlamli matnlar, fikrlar, nazariyalar va uslublarni jamlagan murakkab manzara sifatida qaraladi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo ilmiy merosi asrlar davomida shakllangan falsafiy, tilshunoslik, mantiq, fiqh, kalom, adabiyot, tarix va tafsirga oid matnlar orqali o'ziga xos maktab va an'analarni vujudga keltirgan. Bu matnlar, ularning tili, mazmuni va tuzilishi faqat mazkur davr intellektual tafakkurining mahsuli bo'lib qolmay, balki ular orqali jamiyatdagi ijtimoiy ong,

¹ Aminjonov Asadullojon Qudratillo o'g'li – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.

E-pochta: asadullohqudrotulloh@gmail.com

ORCID ID: 0009-0003-2400-4639

Iqtibos uchun: Aminjonov A. "Sharq adabiy merosida tafsir ilmining shakllanishi, metodologiyasi va yurtimizda yetishib chiqqan soha yetakchilari". *O'zbekiston: til va madaniyat*. 2025, 1 (2): 58-74.

DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.2025.1.2/AGGC8030

ilmiy metod, madaniy kod va g'oyaviy yo'nalishlar haqida ham chuqur tasavvur hosil qilish mumkin.

Tadqiqot obyekti bo'lgan manbalar orasida Movarounnahr hududida yaratilgan tafsir matnlari alohida o'ringa ega. Bunday matnlarning shakllanishi, uslubiy xususiyatlari, zamonaviy filologiya mezonlari asosida o'rganilishi, ularning tarixiy va mintaqaviy kontekst bilan uyg'unligi hozirgi manbashunoslik va matnshunoslik tadqiqotlari uchun dolzarb yo'nalish hisoblanadi. Ayniqsa, Zamaxshariy, Abul Lays Samarqandiy, Abul Barakat Nasafiy kabi mutafakkirlarning matnlarida nafaqat bayon darajasi, balki tahliliy uslub, til tuzilmalari, muqoyasali yondashuvlar, intellektual pozitsiyalar va tarixiy qatlamlar mujassamdir.

Ushbu maqolada Sharq ilmiy an'analarning tarkibiy qismi bo'lgan tafsirga oid matnlar lingvistik, nazariy va metodologik nuqtayi nazardan ko'rib chiqiladi. Asosiy e'tibor Movarounnahr ilmiy muhitida shakllangan tafsir matnlarining tarkibiy strukturasi, ularning ilmiy uslubi, kontekstual zamiridagi g'oya va metodik yechimlarga, shuningdek, bunday matnlarning manbashunoslik jihatidan qadriyat sifatida baholanishiga qaratiladi. "Madorikut-tanzil va haqiqut-ta'vil" matni kabi nodir asarlarning shakllanish sabablari, tuzilish mantig'i va ilmiy-ma'naviy ahamiyati hozirgi filologik tadqiqotlar nuqtayi nazaridan tahlil etiladi.

Asosiy qism

Dastlabki vahiydan boshlab yigirma uch yil davomida nozil qilingan Qur'oni karim 114 suraga ajratilgan bo'lib, bu taqsimot Muhammad payg'ambar tomonidan belgilangani ma'lum. Qur'onning sura, juz' va pora shaklidagi tuzilishi haqida mufassir Abul Barakat Nasafiy quyidagicha izoh beradi: "Qur'oni karimning bu tarzda bo'linishi xotirada saqlash uchun ko'plab yengilliklar yaratadi. Masalan, o'quvchi biror surani yoki ma'lum bo'limni yod olgach, bosqichma-bosqich boshqa qismlarni ham eslab qolishga harakat qiladi. Natijada o'rganish davomiyligi ta'minlanadi. Har bir bosqich muvaffaqiyati esa qalbda ruhiy ko'tarinkilik, faxr hissi uyg'otadi va bu holat o'quvchini davomli yod olishga rag'batlantiradi" [Abul barakat № 2583/I. – 1b].

Oyatlarni tushuntirish va tafsir qilish masalasi muqaddas matn nozil bo'lgan ilk davrlardan boshlab doimiy ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Shu sababli, avvalo, Muhammad payg'ambar o'zlari oyatlarga sharh berganlar. Keyinchalik esa, ushbu vazifani sahobalar, tobe'inlar, ularning izdosh mufassirlari davom ettirgan. Dastlab

bu faoliyat mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida emas, balki hadis ilmi tarkibida rivojlangan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan alohida ilm sifatida shakllangan.

Tafsir ilohiy matnni tushuntirishga xizmat qilgan asosiy soha bo'lganligi sababli, uning o'rni diniy-ilmiy bilimlar tizimida doimo yuksak baholangan. Turli davrlarda bu fanga faqat mufassirlar emas, balki mutakallimlar, fiqhshunoslar, hadis ilmi vakillari ham chuqur e'tibor qaratgan. Bugungi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda ham ushbu fan tarmog'i asosiy tahlil obyektlaridan biri sifatida qamrab olinmoqda.

Tafsir ilmining lug'aviy va istilohiy ma'nolari:

Tafsir تفسير so'zi "fasara" فسر fe'lining o'zagidan olingan bo'lib, lug'atda "izohlamog'", "bayon etmog'", "yoritmog'" ma'nolarini beradi [Luvays 1986, 583].

والتفسير - كشف المراد عن اللفظ المشكل

Ma'nosi: "Tafsir – mushkul lafzlarning ma'nolarini ochish" [Fayruzobodiy 1993, 361].

Abu Hayyon rahimahulloh "Bahrul-Muhit" kitobida aytadilar: ويطلق التفسير أيضاً على التعرية للإنطلاق، تقول: فسرتُ الفرسَ: عرَّيته لِيَنْطَلِقَ فِي حَضْرِهِ، وَهُوَ رَاجِعٌ لِمَعْنَى الْكَشْفِ

Ma'nosi: "Va yana tafsir – التعرية للإنطلاق – ma'nosida keladi, aytasanki: فسرتُ الفرسَ: عرَّيته لِيَنْطَلِقَ فِي حَضْرِهِ - Otni o'z chegarasida yugurishi uchun yalang'ochladim. Va bu yerda - الكشف - ya'ni "ochishlik" ma'nosiga dalolat qilmoqda" [Abu Hayyon 1992, 13]. Bundan ma'lum bo'ladiki, tafsir lug'at jihatidan ikki xil ma'noni anglatadi. 1. Aqlga sig'adigan ma'nolarni ochish. 2. Hissiy narsalarni ochish. Ammo birinchi ma'nosi ikkinchi ma'nosiga qaraganda ko'proq ishlatiladi.

Tafsir istilohda: istilohda "tafsir" Qur'ondan ko'zlangan maqsadni inson o'z aqli darajasida ushunib, boshqalarga ham tushuntirib berishi, deb ta'riflangan. [Обидов 2004, 64].

Qur'oni karimni talqin qilishda ikki asosiy yondashuv – naqliy va aqliy tafsir yo'nalishlari shakllangan. Oyatlarni boshqa oyatlar orqali, sunnat asosida, shuningdek, sahobalar va tobe'inlar rivoyatlariga tayanib izohlash - naqliy tafsir doirasiga kiradi. Ushbu yo'nalishda yaratilgan mashhur asarlar sirasiga Ibn Jarir Tabariy (224/839–311/923) tomonidan yozilgan "al-Jami' al-bayan fi tafsir al-Qur'an", Imom Moturidiy qalamiga mansub "Ta'vilat al-Qur'an" hamda Abu Lays Samarqandiy (vaf. 373/983–984 y.)ning "Bahr al-'ulum" nomli tafsiri kiradi.

Tafsir faoliyatining tarixiy taraqqiyotiga nazar solganda,

dastlabki bosqichlarda bu sohaga hadis ilmi doirasida qaralgan bo'lsa-da, keyinchalik u mustaqil ilmiy yo'nalishga aylangan. Vaqt o'tishi bilan tafsir matnlariga shubhali rivoyatlarning aralashuvi, turli fanlar – kalom, fiqh, nahv, mantiq kabi yo'nalishlarning ta'siri kuchaygani kuzatiladi. Xususan, tafsirning aqliy asosda olib borilishi XII-XIII asrlardan boshlab keng yoyila boshlagan. Bu holat o'sha davrda mantiqiy va tafakkuriy fanlarning ravnaq topganidan dalolat beradi, shu bilan birga, turli nazariy qarama-qarshiliklarda aqliy dalillarning qo'llanilishiga sabab bo'lgan. Mazkur tafsirlar, ya'ni aqliy yondashuvga asoslangan izohlar VI/XII asrlar atrofidan boshlab kitobiy shaklda mustahkamlanib, turli ilmiy yo'nalishlar asosida tasnif qilingan. Ba'zi asarlarda nahv ilmi asosiy o'rinni egallagan bo'lsa, boshqalarida kalom, mantiq, falsafa, tarix yoki hatto isroiliylarga oid tafsilotlar muhim o'rin egallagan. Shunga qaramay, bu tafsirlarning barchasi ilmiy mezonlarga mos tarzda yozilgan va ruxsat etilgan aqliy tafsirlar sifatida qabul qilingan.

Ushbu doiradagi eng e'tiborli asarlar sirasiga quyidagilar kiradi: Abul Barakot Nasafiyning "Madorikut-tanzil va haqo'iq at-ta'vil, Zamaxshariyning "al-Kashshof" asari arab tili va balog'at ilmidagi yuksak salohiyati bilan alohida ajralib turadi.

Ushbu asarlar ichida ayniqsa Abul Barakot Nasafiy tomonidan yaratilgan "Madarikut-anzil" aqliy tafsir yo'nalishining yuksak namunasi sifatida baholanadi. Ma'lumki, islom ilmiy an'analari, xususan, manbashunoslikda Qur'on tafsiri bilan shug'ullangan allomalar hayoti va ijodini o'rganishga bag'ishlangan maxsus adabiyotlar shakllangan. Ular orasida mufasssirlarning tarjimai holi, ilmiy yo'nalishi va tafsiriy merosini bayon qiluvchi "Tabaqot al-mufasssirin" turkumidagi asarlar muhim o'rin tutadi. Ushbu adabiy an'ananing ilk bosqichlarida tafsir ilmi vakillari boshqa diniy-ilmiy soha mutaxassislari bilan bir qatorda umumiy shaklda eslatib o'tilgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan ular alohida guruh sifatida ajratib ko'rsatilgan.

Xususan, hijriy X asrga kelib, mufasssirlarga bag'ishlangan mustaqil tabaqot asarlari paydo bo'la boshladi. Ana shunday asarlarning eng mashhurlaridan biri – Jalololiddin Suyutiy tomonidan yozilgan "Tabaqot al-mufasssirin" bo'lib, unda 136 nafar mufasssirning hayoti, ilmiy maktabi, asarlari va tafsiriy qarashlariga oid muhim ma'lumotlar jamlangan. Mazkur manba tafsir ilmi tarixini bosqichma-bosqich o'rganishda, tafsir maktablarining shakllanishi va mufasssirlar orasidagi ilmiy meros uzviyligini tadqiq etishda asosiy qo'llanmalardan biri hisoblanadi. Suyutiy mufasssirlarni

quyidagi to'rt jamoaga bo'lgan:

- Sahoba, tobe'in va taba'a tobe'inlardan iborat mufassirlar;
- Muhaddislardan iborat mufassirlar. Yuqoridagi ikki jamoa mufassirlari faqihlar to'g'risidagi kitoblarda ham zikr etilgan;
- Ahli sunna val jamoa e'tiqodidagi qolgan mufassirlar jamoasi. Ular o'z tafsirlarida ta'vil, kalom, nahv, lug'at kabi ilmlardan foydalanganlar. Hozirda ushbu mufassirlar jamoasi keng tarqalgan;
- Mo'tazila, shia va shu singari ahli sunnadan boshqa e'tiqodda bo'lganlar toifasi.

Shuni aytish mumkinki, Movarounnahrda islom dinining tarqalishiga qadar ham ilm-fan taraqqiy topgan, olim va savodxon kishilar ko'p bo'lgan. Mintaqaga islom dini kirganidan keyin esa, u yirik ilmiy markazga aylangan. Bunga asosiy sabab sifatida mahalliy aholining qadimdan ilm-u ma'rifatli, madaniyatli bo'lgani va shu sababdan yangi din aholi tomonidan katta to'siqsiz qabul qilinib, ziyoliy qatlamlarning mazkur dinni ilm darajasida yuqori cho'qqilarga olib chiqqanlarini ko'rsatish mumkin. Mashhur olim Ibn Xaldun (732/1332-784/1382) ham ushbu fikrni ta'kidlab, bu yerda ilmli kishilarning ko'p bo'lishi islom madaniyati va bilimlarining tez taraqqiy etishiga xizmat qilganini aytadi. Tez orada Movarounnahrda ilm maskanlari shakllangan, allomalar, qomusiy olimlar yetishib chiqqan boshlagan, islomga oid barcha ilmlar qatori tafsir ilmi ham rivoj topgan. Hatto, aholining oyatlarni tezroq tushunishlari uchun ba'zan tarjimalarga ham ruxsat berilgan [Муминов 2007, 222].

Movarounnahr hududida diniy tafakkur taraqqiyoti Qur'on va tafsir ilmlarining shakllanishi va kengayishiga zamin yaratgan. Ushbu hududda Qur'oni karimni izohlashga oid dastlabki manbalar sifatida Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Dorimiy singari muhaddislarning hadis to'plamlarini eslatish mumkin. Bu to'plamlarda Qur'on oyatlarining talqini berilgan va tafsirga bag'ishlangan alohida boblar mavjud bo'lgan. Suyutiy tafsir tarixini tasniflar ekan, mufassirlarni to'rt guruhga ajratgan bo'lib, ikkinchi toifani hadis ilmi bilan shug'ullangan mufassirlar, ya'ni muhaddis-mufassirlar sifatida qayd etadi. Ularning ba'zisi tafsirga bag'ishlangan maxsus kitoblar yaratmagan bo'lsa-da, hadis to'plamlarida tafsir boblarini alohida ajratgani sababli, ularni Movarounnahrda ilk mufassirlar doirasiga kiritish mumkin.

VIII asrdan boshlab hanafiylik mazhabi bu hududda tobora keng tarqalib, mustahkam mafkuraviy o'rnini egallay boshladi. Bu jarayon hanafiylik maktabining asoschilaridan biri, ya'ni Imom Abu Hanifaning shogirdi Muhammad Shayboniy orqali Movarounnahrda

yetib kelgan. Shu bois bu mintaqada yetishib chiqqan mufassirlar, asosan, hanafiy yondashuvi asosida tafsir yaratganlar.

Movarounnahr mufassirlarining aksari hanafiy mazhabiga mansubligi alohida qayd etilishi zarur. Bu holat nafaqat fiqhiy qarashlarda, balki tafsir metodikasida ham o'z aksini topgan. Mintaqa allomalari tomonidan yaratilgan tafsiriy meroslar hanafiylik asoslarini yanada mustahkamlagan va bu ilmiy yo'nalishga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Shunday qilib, tafsir ilmi Movarounnahrda nafaqat diniy tafakkur, balki fiqhiy maktablarning shakllanishi bilan ham uzviy bog'liq holda taraqqiy etgan.

Movarounnahrda tafsir ilmining rivoj topganini mahalliy mufassirlarning ilmiy merosi ham isbotlaydi. Bulardan biri "Muhaddislar sultoni" unvoniga sazovor bo'lgan Abu Abdullo Muhammad ibn Ismoil Buxoriy (194/810-256/870)dir. U nafaqat hadisda, balki tafsir sohasida ham shuhrat qozongan. Uning mashhur "al-Jome as-Sahih" ("Sahih hadislar to'plami") asaridan oldin yozilgan "at-Tafsir al-kabir" ("Katta tafsir") kitobi bo'lgan, lekin ushbu kitob bizgacha yetib kelmagan [Уваров 2001, 98-99].

Tafsirning ilmiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan aqliy tafsirda esa tafsirchi tomonidan tanqidiy fikrlash, tilshunoslik, qiroat ilmi, mantiq va ijtihodiy yondashuvlar keng qo'llaniladi. Bunday metodikani yaqqol namoyon qilgan mufassirlardan biri Zamaxshariydir. Uning "al-Kashshof" asari arab tili va balog'at asosida tahlilga qurilgan bo'lib, unda oyatlar grammatik, sintaktik va semantik nuqtayi nazardan batafsil sharh etiladi. Zamaxshariy tafsirda avvalo lug'aviy tahlilni ilgari suradi, keyin yetti turdagi qiroatlardan foydalanib, zaif qiroatlarni aniqlaydi va o'qish farqlari asosida ma'no tafovutlarini ko'rsatadi. Tafsir davomida u ko'plab savollar berib, ularga o'zi javob qaytarish uslubini qo'llaydi bu esa tafsirga dialektik ohang bag'ishlaydi va o'quvchining mantiqiy tafakkurini faollashtiradi.

Islom tafsir an'anasi doirasida Qur'on ma'nolarining noto'g'ri talqinlardan himoya qilinishi ham dolzarb masalalardan biri sanaladi. Muhammad alayhissalomning vafotidan so'ng Qur'onni to'g'ri talqin qilish, uning mazmunini saqlab qolish mas'uliyati butun ummat zimmasiga yuklatilgan. Shundan kelib chiqib, tafsir ilmi bilan shug'ullanuvchi shaxsda zarur ilmiy va axloqiy mezonlar mavjud bo'lishi lozimligi ta'kidlab kelinadi. Bunday mezonlar orasida tafsirchining Qur'on tilini chuqur bilishi, hadis ilmini egallagani, fiqhiy masalalarga xabardorligi, kalomiy tafakkurga ega bo'lishi va tarixiy-madaniy kontekstni tushuna olishi kabilar alohida o'rin tutadi. Ana shundagina tafsir amaliyoti ilmiy asoslangan, ishonchli

va kontekstga mos shaklda amalga oshiriladi.

Qur'oni karimni sharhlashdek mas'uliyatli vazifa faqat chuqur ilmiy tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxslargagina ishonib topshirilishi mumkin. Tarixiy manbalar, tafsir uslubiyoti bo'yicha yaratilgan qo'llanmalar va mutaqqaddim ulamolar ta'limotiga ko'ra, mufasssirlilik uchun bir nechta fundamental shartlar mavjud. Quyida ushbu mezonlarning asosiylari keltiriladi:

1. Aqidaviy barqarorlik (sof e'tiqod): tafsir bilan shug'ullanuvchi shaxs e'tiqod nuqtayi nazaridan mo'tadil va mutaqqobil yo'nalishda bo'lishi zarur. Ayniqsa, ahl as-sunna val-jamoa aqidaviy tizimiga muvofiq e'tiqodda bo'lish muhim mezon sifatida qaraladi. Chunki e'tiqodiy og'ishlar tafsir jarayonida subyektiv talqinlar paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin.

2. Hissiy yoki mafkuraviy tarafkashlikdan xoli bo'lish: tafsirchi har qanday g'arazli niyat, shaxsiy manfaat, mazhabiy tarafkashlik yoki siyosiy motivlardan mutlaqo yiroq turishi kerak. Aks holda, Qur'onning muqaddas mazmuni noxolis talqinga uchrashi xavfi yuzaga keladi.

3. Arab tilini mukammal darajada bilish: Qur'on arab tilida nozil bo'lgani bois, ushbu tilda nafaqat erkin o'qiy olish, balki nahv, sarf, balog'at, bayon, badi' va maoniy kabi sohalarda ham yetarli bilimga ega bo'lish zarur. Tafsirchilikda tilshunoslik saviyasi talqinning asosiy mezonlaridan biridir.

4. Qur'on bilan bog'liq maxsus ilmlarni egallagan bo'lish: tafsir ilmi bilan shug'ullanish uchun qiroatlar, nuzul sabablari, nosihmansuh, umum va xos, muhkam va mutashobih kabi Qur'onshunoslik fanlari bo'yicha bilim talab etiladi. Ushbu fanlar Qur'onning ichki tuzilmasini anglash va tartibli sharh berishda zarur asosdir.

5. Oyatni Qur'onning o'zida tafsir qilish: bir oyatning ma'nosi Qur'onning boshqa joylarida kengroq yoki tafsilotli tarzda bayon qilingan bo'lishi mumkin. Shu bois, tafsirni oyatni oyat bilan talqin qilish usuli ustuvor hisoblanadi.

6. Sunnatga tayanilgan tafsir: Muhammad alayhissalomning hadis va sunnatlari Qur'on oyatlarining sharhi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Tafsirchi Qur'onni izohlar ekan, sunniy an'anaga asoslangan ishonchli hadis manbalariga tayanuvchan bo'lishi shart.

7. Sahobalarning ta'rif va talqinlariga murojaat qilish: agar oyat ma'nosining ochiqlanishi Qur'on yoki sunnat asosida aniqlanmasa, sahobalarning talqinlariga murojaat qilish maqbul hisoblanadi. Chunki ular Qur'onning nozil bo'lish jarayonining bevosita guvohlari bo'lgan va mazmuniy kontekstni to'g'ri anglaganlar.

8. Tobe'inlarning tafsiriy qarashlariga murojaat: sahobalarning izdoshlari tobe'inlar tafsir ilmidagi ikkinchi avlod sifatida tan olinadi. Ular tafsirda sahobalar metodologiyasini davom ettirganlar va ilmiy ishonchlilik darajasi yuqori hisoblanadi.

9. Tafakkur salohiyatining kuchliligi (o'tkir fahm): mufassir faqat mavjud ma'lumotlarni takrorlovchi emas, balki ular orasidagi munosabatlarni tahlil qiluvchi, shariatning umumiy ruhiga muvofiq ma'nolarni tanlay oladigan tafakkur darajasiga ega bo'lishi kerak.

Ushbu shartlar tafsir faoliyatini ilmiy mezon asosida olib borishning asosiy garovidir. Shu mezonlarga javob beradigan shaxsning Qur'onni sharhlashdagi mas'uliyati chuqur anglangan, metodik jihatdan tayyor, bilimli mutaxassis bo'lishi kutiladi. Ilmiy manbalarda ta'kidlanganidek, tafsir faqat bilim emas, balki ma'naviy intizom va ilmiy odobni ham talab etadi.

Mavarounnahrda yetishib chiqqan tafsir ulamolari

1. Zamaxshariy - Abu al-Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad ibn Umar al-Xorazmiy, al-Imom al-Hanafiy, Mu'taziliy - hijriy 467-yilda (milodiy 1075-yil) Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida tavallud topgan. U ilmiy doiralarda "Jarulloh" (Zamaxshariy Makkaga safar qilgan. Ka'baga yaqin joyda bip necha yil istiqomat qilgani uchun "Jorulloh" (Allohning qo'shnisi) laqabi bilan mashhur bo'lgan) laqabi bilan mashhur bo'lgan. Zamaxshariyning ilk ustozlaridan biri zamonasining bilimdon shaxslaridan sanalgan otasi bo'lgan. U ilm olishni dastlab Xorazmda boshlab, so'ng Buxoroda davom ettirgan, keyinchalik esa Bag'dodda yetuk mutaxassislar huzurida chuqur ta'lim olgan. Shuningdek, u bir necha bor Xuroson vohasiga safar qilgan. Qayerda bo'lmasin, u ilm ahli tomonidan hurmat bilan kutib olingan, atrofida shogirdlar jam bo'lgan. U bilan bahsga kirishganlarning barchasi oxir-oqibat uning ilmiy salohiyatini tan olgan. Ana shu tarzda, Zamaxshariyning obro'si keng yoyilib, zamonasining eng mashhur allomalaridan biriga aylangan.

U mutaxassislik jihatidan faqat tafsir sohasida emas, balki arab tili va adabiyoti, lug'at, hadis ilmi, fiqh va kalom yo'nalishlarida ham muhim asarlar yaratgan. Tafsir sohasidagi eng mashhur asari - "al-Kashshof" bo'lib, bu asar Qur'on oyatlarining lug'aviy, balog'iy va grammatik jihatdan tahliliga asoslanadi. Nahv ilmi bo'yicha "al-Mufassal", lug'at sohasida esa "Asos al-balog'a" asarlari mashhurdir.

Zamaxshariy aqidaviy jihatdan mo'taziliy qarashlarga mansub bo'lganini yashirmagan, balki ochiqchasiga e'tirof etgan.

Rivoyatlarga ko'ra, u birovning huzuriga kirishdan oldin eshik oldidagi xodimga: "Abu al-Qosim al-Mu'taziliy kelganini ayt" – deb uqtirgan.

Zamaxshariy hijriy 538-yilda (milodiy 1144-yil) Makkadan qaytganidan so'ng, Xorazmning Jurjoniyya qishlog'ida vafot etgan. Uning "al-Kashshof" asarini yozish jarayonida ichki ikkilanmalar bo'lgani, muallif tomonidan tafsir muqaddimasida tilga olingan. Shunga qaramay, ushbu tafsir nafaqat tilshunoslik va balog'at, balki Qur'onning nazmiy qurilishi va mazmuniy jihatlarining chuqur tahliliga asoslanganligi bilan ajralib turadi.

"Al-Kashshof" asari har jihatdan mo'tabar tafsirlar sirasiga kiradi. Har bir oyatdagi nazm, lafz, ma'no va balog'at uslubini ilg'ashda muallifning lug'aviy saviyasi, adabiy bilimlari, arab she'riyoti va til me'yorlarini chuqur egallagani seziladi.

Zamaxshariy mufasssirlilik faoliyati uchun zarur bo'lgan barcha ilmiy vositalarni o'zida jamlab, ulkan tafsiriy mehnat mahsuli bo'lmish o'zining mashhur tafsirini yozib tamomlagan va uni keng jamoatchilik e'tiboriga taqdim etgan. U mazkur tafsirning ilmiy, uslubiy va metodik jihatdan mukammalligini, u turli ilm sohalari vakillari tomonidan ijobiy qarshi olinganini anglagach, bu muvaffaqiyatni Yaratganning ne'mati va inoyati sifatida baholab, shukrona tariqasida quyidagi g'azalni yozgan:

*Dunyoda tafsirlar sonu sanoqsiz,
Ular orasida Kashshof safodir.
Agar sen hidoyat qidirsang, o'qi!
Jahl bir kasallik, Kashshof shifodir.*

Alloma ibn Xaldun Zamaxshariyning tafsirini shunday ta'riflaydi: "Tafsirlarning balog'at, fashohat va til sohasida eng go'zal yozilgani Xorazm elidan bo'lgan Az-Zamaxshariyning "Al-Kashshof" tafsiridir. Muallif aqidada e'tizoliydir, Qur'on oyatlariga fikr bildirayotganda o'zining ana shu fosid aqidasi nuqtayi nazaridan hujjatlashadi, shuning uchun "ahli sunna" ulamolari jumhurni doim uning tuzog'idan ehtiyot bo'lishga chaqiradilar. Lekin til va balog'at ilmini bilishiga e'tiroz yo'q. Agar tolib mazohibi saniyadan voqif bo'lib, e'tiqodi mustahkam bo'lsa, u holda qarshiligimiz yo'q, "Al-Kashshof"ni mutolaa qilib, muallifning til sohasidagi san'atini, uning benazirligini ko'rib ibrat olsin. Iroq ajamlaridan bo'lgan Sharafiddin at-Toyyibiy "Al-Kashshof"ga sharh yozgan. U sharhida, Qur'on oyatlarining balog'ati mo'taziliylarning aqidasi emas, "ahli sunna" aqidasi muvofiq ekanligini isbotlagan" [Ibn Xoldun 2005, 491].

2. Nasr ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Ibrohim Abul Lays

Samarqandiy Hanafiy tafsir, fiqh, usul (din asoslari), aqida va zuhd sohalarida ko'plab asarlar yaratgan yetuk mutafakkir, o'z davrining peshqadam allomalaridan biri hisoblanadi. U Samarqand shahrida faoliyat yuritgan va shu yerda shayxulislom maqomiga sazovor bo'lgan. Abul Lays yashagan davrda yurtimizda lug'at, tafsir, hadis, fiqh kabi diniy-ilmiy yo'nalishlar keng rivojlangan bo'lib, bu sohalar bilan mashg'ul olimlar islom dunyosida mashhur bo'lganlar.

Allomaning mashhur asarlaridan "Bahrul ulum", "Uyun al masoil", "Tanbiyh al-g'ofiliyn", "Bo'ston al-Orifiyn" kabi kitoblar bizning zamonamizgacha yetib kelgan va nashr qilingan. Tarixiy manbalarda uning tug'ilgan sanasi hijriy 301-310-yillar oralig'ida deb ko'rsatiladi. "Abul Lays" kunyasi o'z ismidan yuqori maqomda tanilgan bo'lib, u fiqhda yetuk mutaxassisligi sababli "Faqih Abul Lays" nomi bilan shuhrat qozongan. Hanafiy fiqhida erishgan martabasi beqiyos bo'lib, unga teng keladigan olim topilishi qiyin bo'lgan. Uning ismidan oldin arab tilida e'tibor ifodasi sifatida ishlatiladigan "Al" artikli qo'shilib, uni "Al-Faqih" deb atashgan. Alloma bu laqabni o'zi ham ardoqlagan. Rivoyatlarga ko'ra, u tushida Payg'ambar s.a.v.ni ko'rgan va u zot uni "Faqih" deb ataganlar. Allomaning ikkinchi mashhur laqabi "Imom al-Huda" ("To'g'ri yo'l ko'rsatuvchi imom") bo'lib, bu laqab tarixda Abu Mansur al-Moturidiyga ham nisbatan ishlatilgan.

Abul Lays as-Samarqandiy tug'ilgan va faoliyat yuritgan Samarqand shahri haqida "Bahrul ulum" tafsirining muqaddimasida quyidagicha ma'lumot keltiriladi: "Arablar uni Siron deb ataydilar. Safd vodiysining janubida joylashgan bu shahar iqlimi qulay va yirik ilmiy markaz hisoblanadi".

Samarqandiy tafsirni salaf ulamolari, sahobalar, tobe'inlar va ulardan keyin yashagan mufasssirlarning so'zlariga tayangan holda sharhlaydi. Biroq, rivoyatlarning sanadlarini faqat kam hollarda keltiradi. Bu jihatdan u ibn Jarir Tabariyga o'xshash bo'lsa-da, uning uslubida rivoyatlar ortidan boshqa isnodlar zanjirini keltirish odatiy hol emas. Faqat ayrim holatlargina bundan mustasno. Asarda ba'zan qiroatlarga va tilga oid masalalarga murojaat qilinadi. Qur'ondagi bir oyat boshqasini tushuntirib beradigan bo'lsa, u Qur'onni Qur'on bilan sharhlash metodidan foydalanadi. Tafsirda isroiliylik rivoyatlarga ham duch kelinadi. Ko'pincha, "ba'zilar shunday deydilar, boshqalar esa bunday deydilar" tarzida zikr etilgan fikrlar mavjud. U zaif rivoyatlardan ham istifoda qiladi. Ba'zi murakkab joylarda o'quvchining e'tiborini uyg'otish uchun savol-javob uslubidan foydalanadi. Qur'onda ixtilof yoki ziddiyat bor, deb

o'ylovchilar pozitsiyasiga nisbatan rad javobi beradi va ularning noto'g'ri talqinlarini muhokama asosida inkor etadi.

Ushbu tafsir o'zida juda boy ma'lumotlarni jamlagan. Unda muallif naqliy va aqliy tafsir metodlarini uyg'unlashtirgan bo'lib, tafsiurning aqliy jihatlarini asosli dalillar bilan bayon etgan bo'lsa-da, umumiy yondashuvda naqliy tafsirga ustuvorlik bergan. Shu sababli bu tafsir manbaviy asosga ega bo'lgan, ya'ni ma'sur tafsirlar sirasiga kiradi.

Manbalarda Abu Lays as-Samarqandiyning oilaviy hayoti haqida deyarli hech qanday ma'lumot uchramaydi.

3. Nasafdand yetishib chiqqan zabardast olimlardan Abul Barokat an-Nasafiy o'zining chuqur bilimi, tafsir, aqida va fiqh sahalaridagi yetuk ilmi bilan mashhur bo'lgan. U tug'ilib, yashagan davrda ilmiy, madaniy va iqtisodiy muhit ancha og'ir ahvolda edi. Chunki o'sha paytlarda Mo'g'ullar Movarounnahrni Chig'atoy ulusi tarkibida to'la boshqarayotgan va ilm-fan, madaniyat hamda iqtisodiy hayot tanazzulga uchragan edi. Shu sababli manbalarda Abul Barokat Nasafiy yashagan davr, ijtimoiy-madaniy hayot haqidagi ma'lumotlar deyarli uchramaydi. U paytda Sharq tanazzulga yuz tutgan, Mo'g'ullar ko'zga ko'ringan ziyolilar, ilm peshvolari va din ahlini o'ldirganlar. Omon qolganlar esa boshqa yurtlarga ko'chib ketganlar.

Abul Barokat Nasafiyning to'liq ismi Xofiz ad-Din Abul Barokat Abdulloh ibn Ahmad ibn Mahmud an-Nasafiy bo'lib, Muhammad Shafiq Girbonning "Al-Mavsuat al-arabiyat al-muyassara" asarida allomaning tavalludi hijriy 629-yil, milodiy 1232-yil deb ko'rsatilgan. Abul Barokat an-Nasafiy haqida ko'plab bio-bibliografik manbalarda qisqa, bir-birini takrorlovchi ma'lumotlar berilgan. Adabiyotlarda u quyidagicha tavsiflanadi: "Shayx, ulug' imom, peshqadam, alloma, yer ahlining ustoz, sunnat va farzning jonlantiruvchisi, Qur'on ma'nolarini kashf qiluvchi, ta'vilning nozik jihatlarini biluvchi, ilohiy Kalom tarjimoni, maoniy va bayon ilmlari sohibi, fiqh va usul al-fiqhning bilimdoni, aqliy va naqliy masalalarni tayanchi, din va millat himoyachisi, islom va musulmonlar yetakchisi, payg'ambarlar ilmlari merosxo'ri, yetuk mujtahid, muhaqqiq olimlarning mashhuri".

U Nasafda tug'ilgan bo'lsa-da, Buxoroda ta'lim olgan. Yoshlik davrini diniy-ilmiy muhitda o'tkazgan. Ilm talabida ko'plab mamlakatlarga safar qilgan va katta obro'-e'tibor topgan. Ilmga chuqur berilgan, siyosiy jarayonlardan yiroq bo'lgan va ilmiy doiralarda keng shuhrat qozongan.

Abul Barokat an-Nasafiyning asarlari tafsir, aqida, fiqh kabi

ilmlar doirasini qamrab oladi. Ehtimol, u asarlarida dinga oid ushbu ilmlarni keng yoritganining asosiy sababi Mo'g'ullar davridagi ushbu fanlarni qayta tiklash zarurati bo'lganidir.

Abul Barokat Nasafiyning umumiy hisobda o'n uchta ilmiy asari mavjud bo'lib, ularning barchasi bizgacha yetib kelgani aniqlangan. Bu asarlarning beshtasi fiqhga, to'rttasi kalomga, uchtasi usul al-fiqhga va bittasi tafsirga oid bo'lib, oltitasi nashr etilgan.

Abul Barokat Nasafiyning tafsir ilmiga oid eng mashhur asari – "Madorikut-tanzil va haqiqut-ta'vil" bo'lib, u musulmon olamida Qur'onga yozilgan mo'tabar tafsirlardan biri hisoblanadi. Bu asar mazmuni, uslubi va ilmlarni yoritishdagi keng qamrovi bilan muallifning boshqa asarlari orasida alohida o'rin tutadi.

Ushbu asar yaratilgan davrdan beri ilm ahli tomonidan katta e'tibor bilan o'rganilib kelmoqda, yurtimiz va xorijdagi diniy ta'lim muassasalarida darslik sifatida qo'llanilishi esa uning e'tiborli tafsirlar sirasiga kirishini tasdiqlaydi.

Tafsir yozilishining sabablari muallif tomonidan ham ochiq bayon qilingan: "Mendan yaqinlarim Qur'onni ta'vil qiluvchi, turli qiroatlar va harakat uslublari ko'rsatilgan, ahli sunna val-jamoa aqidasi muvofiq keladigan, adashganlar va bid'at ahli so'zlaridan xoli bo'lgan, malollik tug'dirmaydigan hamda tushunarsiz darajada bo'lmagan tafsir yozishimni so'rar edilar. Men dastlab ikkilandim. Nihoyat, Allohning tavfiq va inoyati ila tafsir yozishga kirishdim hamda uni oz muddat ichida yozib tamomladim. Kitobimni "Madorik at-Tanzil va Haqiq at-Ta'vil" deb nomladim. Alloh barcha ishlarni yengillashtiruvchi, xohlagan narsasini qilishga qodir va duoni tez ijobat qiluvchi zotdir" [Abul Barakat № 2583/I. – 1b].

Darhaqiqat, mazkur tafsir haddan tashqari keng bo'lmagan, lekin qisqalikdan ma'no yo'qoladigan darajada ham emas. Uni o'qigan kishi charchamaydi va muhim ma'lumotlarni to'laqonli oladi.

Muhammad Zahabiy o'zining "At-Tafsir va-l Mufassirun" kitobida quyidagicha baho beradi: "Abul Barokat Nasafiy tafsiri uzun ham emas, qisqa ham emas. "Al-Kashshof"da mavjud balog'at ilmining nozik qirralari hamda Qur'on ma'nolarini tushuntirishda daqiq iboralar qo'llanilgan".

Mazkur tafsirning O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida jami 14 ta qo'lyozma nusxasi mavjud. Shuningdek, jahon kutubxona fondlarida ham bir necha nusxalari saqlanmoqda.

Tafsirning yozilish uslubi unda ba'zi oyatlar alohida ajratib yozilmagan, balki oyatning davomidan izoh berilgan. Ko'pchilik

qo'lyozma nusxalarda oyatlar raqamlangan.

Bu tafsir ba'zi jihatlarda Bayzoviy va Zamaxshariy tafsirlariga yaqin bo'lib, ularning qisqartma shakli sifatida tuzilgan. Ammo muallif "Al-Kashshof"dagi mo'taziliy qarashlarni chiqarib tashlab, ularni ahli sunna e'tiqodiga muvofiq tarzda izohlagan. Bu tafsir o'rtacha hajmli bo'lib, unda qiroatlar, e'rob tafsilotlari bilan birga, "Al-Kashshof"dagi balog'iy nozikliklar, go'zal iboralar va ma'nodagi teranliklar mujassam. Tafsirida savol-javob uslubi mavjud bo'lsa-da, u "agar unday so'ralsa..." kabi mantiqiy muloqot shaklida emas, balki oyat tafsirining ichki oqimi orqali savolga javob berilayotgan ko'rinishda tashkil etilgan. Shuningdek, "Al-Kashshof" tafsiridan farqli ravishda bu tafsirda har bir sura oxirida fazilatga oid mavzu'iy hadislar keltirilmagan.

"Kashf az-zunun" sohibining yozishicha, An-Nasafiy tafsirini Shayx Zayniddin Abu Muhammad Abdurahmon ibn Abu Bakr ibn al-Ayniy muxtasar qilgan va unga ba'zi narsalarni qo'shgan" [Hoji Xalifa 2008, 248]. Lekin bu muxtasar tafsir hozir mavjud emas. An-Nasafiy tafsirida ba'zi oyatlarning nahviy qoidasiga ham unchalik chuqur bo'lmasa-da, to'xtalgan.

Muallifo'z tafsirda mutavotir yetti qiroat va ularning qurrolari haqida batafsil bayon qilgan. Shuningdek, fiqhga oid oyatlarning tafsirda ham hanafiy mazhab nuqtayi nazaridan hukmlar chiqarib, boshqa mazhablar hukmlariga raddiyalar bergan. Ammo isroiliyotlar masalasiga kelsak, ulardan juda kam foydalangan.

